

**CHINGIZ AYTMATOV ASARLARIDAGI SHARQ AYOLLARINING RUHIY
OLAMI CHIZGILARIGA BIR NAZAR**

Usmonova Shahina Xudoynazar qizi¹

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti 4-kurs talabasi

**MAQOLA
MA'LUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 18.10.2024

Revised: 19.10.2024

Accepted: 20.10.2024

Mazkur maqolada Sharq adabiyotida munosib o'ringa ega ijodkor Chingiz Aytmatovning asarlarida Sharq ayollarining ruhiy olami chizgilari haqida muxtasar fikrlar bayoni keltirib o'tilgan.

KALIT SO'ZLAR:

*Chingiz Aytmatov,
Sharq ayollari, obraz,
qahramon, ijodkor.*

KIRISH. Ayol tabiatning benazir tilsimi. Uni anglash, tushunish uchun bir insonning umri kamlik qiladi. Chingiz Aytmatov asarlaridagi ayollar obrazi orqali bu falsafani chuqurroq mushohada etish imkonini yaratadi. Ijodkorning “Asrga ta'tigulik kun” romanidagi Nayman ona , “Jamila”, “Alvido, Gulsari” qisssalaridagi Jamila, Jaydar obrazlarida Sharq ayoliga xos bo‘lgan o‘zgacha ruhiyat kompozitsiyasiga duch kelish mumkin. Asar qahramonlari o‘z botiniy atmosferasiga ega, asar syujetining takomilida yetakchilik qiladi. “Alvido, Gulsari” qissasidagi bosh qahramon Tanaboyning ayoli Jaydar , ruhan mustahkam, yuksak insoniy sifatlarga ega obrazdir. Uning oilasi, farzandlari, ayollik or-nomusi, o‘z eriga bo‘lga cheksiz sadoqati eri xiyonat qilganini bilib tursada, uning odamlar oldida sha’ni toptalmasligi uchun o‘zidagi faqat ayollargagina xos bo‘lgan bahor yomg‘iridan keyingi seldek qudratli isyonni yenga olishida ham ko‘rish mumkin. Asarda ushbu holatlar beqiyos darajadagi soddalik bilan ochib berilgan.

“...Yilqilar har joyga tarqalib ketgan bo‘ronli tunda erini qidirib uni yarim- yalang‘och holda uchratgan Jaydar, cho‘pon bolakay bilan ortga qaytayotib eriga shunday deydi:

-Sen shu yerda tura tur. Senga ovqat, kiyim-kechak keltiraman. Odamlarning ko‘ziga qanday ko‘rinasan bu ahvolda?

Yoki uning eri o‘zining eng yaqin o‘rtog‘i, kolxoz raisi Jo‘ra o‘lim yoqasida turganda o‘zicha arazlab, injiqlik qilib yurgan Tanaboyni o‘lim bilan olishib yotgan insonni ko‘rib kelishga undashi quyidagicha tasvirlanadi.

Jaydar qaytib keldi:

- Hali kiyimlaringni kiymadingmi?
- Jonimga tegaverma. Bormayman dedim-ku.
- O‘rningdan tur! – g‘azab bilan baqirdi Jaydar.

Tanaboy xuddi komandirning buyrug‘ini bajargan soldatdek o‘rnidan sakrab turganini sezmay qoldi. Jaydar yaqin kelib chiroqning xira shulasida g‘am cho‘kkan g‘azabli ko‘zlarini eriga tikdi.

-Agar sen erkak bo‘lmasang, inson bo‘lmasang, mushtipar bir ojiza bo‘lsang, sen uchun men boraman, sen esa lab- lunjingni osiltirib o‘tiraver! Hoziroq jo‘nayman. Bor, otni darhol egarla”.^[1]

Bu manzara hech qanday izohga muhtoj emas. Bu- ayol mardligi.

Jaydardan farqli ravishda o‘smir teraklardek g‘ururi osmon, qalbini hali bolalarcha shaddotlik, quvlik tark etmagan, tonggi shabnamda chayilgandek top-toza ko‘ngil sohibasi bo‘lmish Jamila esa, butunlay o‘zga qiyofada tasvirlanadi. Eri urushga ketgan bu yosh kelinchakning ichki kechinmalari, ko‘ngil izardorlarini tabassumi ortiga yashirishga qodir bo‘lgan bu obraz o‘zining haqiqiy muxabbatini bu hayotda hech kimi yo‘q, kamgap, biroq ichki olami nihoyat darajada buyuk bo‘lgan yigit, Doniyor timsolida ko‘radi. Iliq avgust kechalarining birida bo‘lgan butun olamga va odamga muhabbat uyg‘otgan sirli kuy hayrati aravada ketayotgan Jamila, Doniyor va asar voqelari aynan uning tilidan olingan Jamilaning qayinukasi hayotida bir umrga muhrlanib qoladi. Ushbu lahzalar Jamila tuyg‘ularini jumbushga keltiradi. Oniy lahzalik hissiyotdan o‘zi cho‘chib ketadi va asarada bu holat quyidagicha tasvir topadi:

“...Bunday qarasam, Jamila Doniyorni mahkam quchoqlab, uni bag‘riga bosib olgan ekan. Biroq, shu zahotiyoy nimadandir cho‘chigandek tisarilib, aravadan sakrab tushdi. Doniyor shoshib qoganidan tizginni tortib aravani to‘xtatdi. Jamila teskari qaragancha yo‘lning qoq o‘rtasida serrayib turib qoldi, so‘ng boshini shartta burdi-da, yig‘i aralash: - Nega qaraysan? Menda nimang bor? Qarama menga, aravangni hayda , jo‘na! – dedi-da, orqada qolgan aravasi tomon ketdi.”^[2]

Ushbu o‘rinlarda o‘z taqdiriga tadbir qilishga ojizligidan o‘z tuyg‘ularidan qochsada, biroq qalbida qaynoq buloq bo‘lib ko‘z ochgan muhabbatidan ham yuz o‘gira olmaydi. Jamila asar so‘ngida Doniyor bilan qochib ketadi. U o‘z taqdirini yenga olgan, sarobni emas

haqiqiy baxtni qo‘lidan tutgan qahramondir, chunki u eri urushdan qaytib kelgan taqdirda ham baxtli u bilan baxtli bo‘la olmasdi. Uning ma’naviy olami, tasavvurlari bunga dosh beraolmasdi. Chingiz Aytmatov yaratgan navbatdagi obraz Nayman ona qiyofasida namoyon bo‘ladi. O‘z farzandiga bo‘lgan cheksiz mehr- muhabbat uni manqurtlikdan qutqarishga bo‘lgan ishonch, farzandining insoniy qiyofasini tiklashga bo‘lgan umidm, faqat onalargina qodir bo‘lgan kuch va har lahma unit ark etmagan iztirob Nayman onaning ko‘ngil olamini tashkil etadi. Farzandi Jo‘lomonga qarata – Jo‘lomon qulunim, meni taniyapsanmi, men onangman! deya cheksiz kengliklarda aks-sado beraolgan, biroq farzandining majruh qalbiga yetib bormagan nidosi asarda fikriy girdobni hosil etmay qolmaydi. Kitobxon tasavvuri beixtiyor shu nuqtada mavjlanaveradi.

Ushbu 3 ayol qiyofasida bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilgan ko‘zgudagi odamni ko‘rish mumkin va u har uchalla ko‘zguda ham namoyon. Bu dard. Ijodkor asarlarida keltirilgan Jaydar , Jamila kabi qahramonlarni zamon va makon, ya’ni urush orti voqealari, azob uqubatlarga to‘la turmush qiyinchiliklari birlashtirib tursa, Nayman ona portetida esa onaning jasorat manzaralari yuzaga qalqib chiqadi. Jaydarning qo‘bizni yurakni sel qiladigan darajada “bolasini yo‘qotib qo‘gan ona tuya “ haqidagi qo‘shiqni aytib chalishi asarda alohida urg‘u ostiga olinadi va ayolning ruhiyati go‘yo kuy orqali parvoz etadi.^[3] “Jamila”da esa Jamilaning bolalarcha qiqir-qiqir kulgulari orqali kimadir baxt bera olgan tiniq jarang ko‘ngil kengliklariga yoyiladi. Nayman onaning - Jo‘lomon , qulunim, bolam! degan so‘nggi nidosi hali ham eshtilayogandek tuyuladi.Jaydar obrazida -oilasi uchun har ishga qodir, ruhan yetuk rafqa, Jamilada hayotda haqiqiy baxt va muhabbat uchun jamiyat qoidalariga qarshi chiqsa olgan ruhan baquvvat ayol, Nayman ona timsolida ruhan jasoratli onani his qilish mumkin. Chingiz Aytmatovning ushbu obrazlarni yaratishda Sharq ayollarining ruhiy olamini boricha, ochiq gavdalantirib berganligi alohida e’tirofga loyiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Alvido, Gulsari”, Chingiz Aytmatov, “Kamalak” nashriyoti, T – 2019
2. “Jamila”, Chingiz Aytmatov, “Yoshlar” nashriyoti, T – 2019
3. “Asrga tatigulik kun”, Chingiz Aytmatov, “Yoshlar” nashriyoti, T – 2018
4. www.ziyouz.com sayti.